RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI AMALIYOTI TAHLILI	702
Kazakbayev S.B.	
BOG'DORCHILIK TARMOG'NI RIVOJLANTIRISHDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	705
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
MHXS ASOSIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING BUGALTERIYA HISOBI VA MOLIYAVIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	709
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING IMTIYOZLI MOLIYALASHTIRISH MYEXANIZMLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	718
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
MAHALLA TIZIMIDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	724
Berkinov Bozorboy Berkinovich	
XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI	728
Fayyoza Xalimova Nafasovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN BIZNES JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH AMALIYOTI.....	733
Azimov Asrorjon Muzaffarjonovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	737
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	



TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	742
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI	749
Sultanov Anvar Abdullaevich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....	754
Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохиrowна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарида Хуразовна	
XORIJIY MOLIYAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNINI	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVIROPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ
TAJRIBALARI..... 850
Raxmonov Aziz Iskandarovich



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI

Raxmonov Aziz Iskandarovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Mustaqil izlanuvchisi

Email: rahmonovaziz1983@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning xorij tajribalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Singapur, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va AQSh tajribasi asosida xizmatlar sektorida innovatsion rivojlanish mexanizmlari o'rganildi. Raqamli transformatsiya, platformali biznes modellari, innovatsion infratuzilma va inson kapitalini rivojlantirishning xizmat ko'rsatish samaradorligiga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida milliy sharoitda qo'llash mumkin bo'lgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, innovatsion faoliyat, raqamli transformatsiya, platforma iqtisodiyoti, innovatsion infratuzilma, xorij tajribasi, inson kapitali, servis menejmenti.

Abstract. This article analyzes foreign experience in developing innovative activities within service enterprises. Based on the practices of developed countries such as Singapore, Germany, Japan, South Korea, and United States, the mechanisms of innovation-driven development in the service sector are examined. The study highlights the impact of digital transformation, platform-based business models, innovation infrastructure, and human capital development on service efficiency. Practical recommendations for adapting foreign experience to national conditions are proposed.

Key words: service sector, innovative activity, digital transformation, platform economy, innovation infrastructure, foreign experience, human capital, service management.

Аннотация. В статье проанализирован зарубежный опыт развития инновационной деятельности в предприятиях сферы услуг. На основе практики развитых стран, как Сингапур, Германия, Япония, Республика Корея и Соединённые Штаты Америки, исследованы механизмы инновационного развития сервисного сектора. Рассмотрено влияние цифровой трансформации, платформенной экономики, инновационной инфраструктуры и человеческого капитала на эффективность услуг. Разработаны практические рекомендации по адаптации зарубежного опыта к национальным условиям.

Ключевые слова: сфера услуг, инновационная деятельность, цифровая трансформация, платформенная экономика, инновационная инфраструктура, зарубежный опыт, человеческий капитал, сервисный менеджмент.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi yetakchi o'rinni egallab, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 60–80 foizini tashkil etmoqda. Ayniqsa, OECD mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlari ko'p jihatdan xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bilan bevosita bog'liq. Raqamlashtirish, sun'iy intellekt, platformali biznes modellari, mijozga yo'naltirilgan servis texnologiyalari xizmatlar bozorida raqobat ustunligini ta'minlovchi asosiy omillarga aylanmoqda.



Innovatsion faoliyat xizmat ko'rsatish korxonalarida nafaqat yangi xizmat turlarini joriy etish, balki mavjud jarayonlarni optimallashtirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, marketing strategiyalarini modernizatsiya qilish va mijozlar bilan o'zaro aloqalarni raqamli platformalar orqali kuchaytirishni ham o'z ichiga oladi. Xususan, AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda xizmatlar sohasida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davlatlarda startap ekotizimlarini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish, venchur kapital bozorini kengaytirish hamda raqamli infratuzilmani mustahkamlash orqali xizmat ko'rsatish korxonalarining innovatsion salohiyati oshirilmoqda.

Masalan, Singapur tajribasida "Smart Nation" konsepsiyasi asosida xizmatlar sektori to'liq raqamlashtirish yo'liga o'tkazilgan bo'lsa, Finlandiya modeli esa innovatsion klasterlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik orqali servis korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Bunday yondashuvlar xizmatlar sohasida samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini yaratmoqda.

Hozirgi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekiston xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun ham xorij tajribasini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda mijozlarga qiymat yaratishga yo'naltirilgan biznes-modellarni shakllantirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalarini tahlil qilish, ularning samarali mexanizmlarini aniqlash va milliy sharoitga moslashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalasi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Ilmiy adabiyotlarda xizmatlar innovatsiyasi tushunchasi, uning turlari, boshqaruv mexanizmlari va iqtisodiy samaradorlikka ta'siri turli nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan.

Innovatsiya nazariyasining fundamental asoslari Joseph Schumpeter tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qiladi. Schumpeter innovatsiyani yangi mahsulot, yangi texnologiya, yangi bozor yoki yangi boshqaruv shakli sifatida ko'rib, xizmatlar sohasidagi yangilanish jarayonlari uchun metodologik asos yaratgan.

Zamonaviy innovatsiya nazariyalarida xizmatlar sektori alohida tadqiqot obyekti sifatida shakllangan. F.A. Djalilov innovatsiyani tadbirkorlik faoliyatining tizimli vositasi sifatida baholab, xizmat ko'rsatish korxonalarida mijozga yo'naltirilgan yondashuv innovatsion ustunlikni ta'minlashini ta'kidlagan [1]. Uning fikricha, xizmatlar sohasida innovatsiya ko'proq tashkiliy va marketing yangiliklari orqali namoyon bo'ladi.

Xizmatlar innovatsiyasi bo'yicha nazariy tadqiqotlar Christopher Freeman va Bengt-Åke Lundvall tomonidan milliy innovatsion tizim konsepsiyasi doirasida rivojlantirilgan [2]. Ushbu yondashuvga ko'ra, innovatsiyalar samaradorligi davlat, biznes va ilmiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlik darajasiga bog'liq. Bu model xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion infratuzilmani shakllantirishning institutsional asoslarini tushuntiradi.

Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalarni statistik va amaliy jihatdan o'rganish OECD tomonidan ishlab chiqilgan Oslo qo'llanmasida keng yoritilgan. Unda innovatsiyalar mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy turlarga ajratilib, xizmatlar sektorida innovatsion faoliyatni baholash metodologiyasi taklif etilgan [3]. Ushbu yondashuv ko'plab mamlakatlarda xizmatlar innovatsiyasini o'lchashning asosiy mezon sifatida qo'llaniladi.

So'nggi yillarda raqamli transformatsiya va platforma iqtisodiyoti xizmatlar innovatsiyasining yangi bosqichini boshlab berdi. Manuel Castells axborot jamiyati nazariyasida raqamli tarmoqlar va bilim iqtisodiyoti xizmatlar sektorida innovatsion o'zgarishlarni tezlashtirishini asoslab bergan [4]. Raqamli platformalar orqali xizmat ko'rsatish samaradorligi, tezkorligi va mijoz tajribasi sezilarli darajada oshmoqda.

Shuningdek, World Bank va World Economic Forum hisobotlarida xizmatlar sektorida innovatsion rivojlanish mamlakatlarning global raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [5]. Ularning tadqiqotlarida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, raqamli infratuzilma va inson kapitali xizmatlar innovatsiyasining asosiy omillari sifatida ko'rsatiladi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham xizmatlar sohasida innovatsion boshqaruv, servis marketingi, raqamli texnologiyalarni joriy etish va klasterlashuv jarayonlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq, mavjud tadqiqotlarda xorijiy tajribalarni kompleks tahlil qilish va ularni milliy sharoitga moslashtirish masalalari yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Shu sababli, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning xorij tajribalarini chuqur o'rganish, nazariy qarashlarni amaliy mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish hamda milliy iqtisodiyot sharoitiga mos innovatsion model ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning xorij tajribalarini o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy, empirik va amaliy tahlil usullarining uyg'unligiga asoslanadi. Tadqiqot metodologiyasi xorij tajribasini tizimli ravishda tahlil qilish va uni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Natijada xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning samarali modeli ishlab chiqilishi hamda amaliy tavsiyalar shakllantirilishi ko'zda tutilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning xorij tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sektori innovatsion o'sishning asosiy drayveriga aylangan. Tahlil jarayonida institutsional qo'llab-quvvatlash, raqamli transformatsiya darajasi, inson kapitali sifati va startup ekotizimining rivojlanganligi asosiy omillar sifatida aniqlandi.

Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, "Smart Nation" konsepsiyasi doirasida davlat xizmatlarining to'liq raqamlashtirilishi servis korxonalarining samaradorligini sezilarli darajada oshirgan. Elektron hukumat tizimi, raqamli to'lovlar va sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar mijozlar bilan ishlash tezligini va sifatini yaxshilagan.

AQShda platforma iqtisodiyoti modeli (Uber, Amazon, Airbnb kabi servis platformalar) xizmat ko'rsatish jarayonlarini transformatsiya qilib, innovatsion biznes modellarini shakllantirgan. Tahlil natijalariga ko'ra, raqamlashtirish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda xizmatlar sektorining qo'shilgan qiymati va eksport hajmi sezilarli o'sish sur'atlariga ega.

Germaniyada innovatsion klasterlar va ilmiy markazlar xizmat ko'rsatish sohasida texnologik yangiliklarni tez joriy etishga imkon yaratgan. Xususan, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari servis korxonalarining innovatsion faolligini oshirgan.

Yaponiyada esa texnologik modernizatsiya va sifat menejmenti tizimlari (Kaizen, Lean) xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, davlat tomonidan R&D xarajatlarini subsidiyalash, soliq imtiyozlari va grant dasturlari xizmat ko'rsatish korxonalarining innovatsion salohiyatini sezilarli kuchaytiradi.

World Economic Forum hisobotlari tahlili natijasida aniqlanishicha, yuqori malakali kadrlar va raqamli kompetensiyalar innovatsion xizmatlar rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Ta'lim tizimi va biznes o'rtasidagi integratsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda servis innovatsiyasi tezroq rivojlanadi (1-jadval).

1-jadval. Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion rivojlanish bo'yicha xorij tajribasi va takliflar

№	Xizmat sohasi	Xorij tajribasi (mamlakat)	Qo'llanilgan innovatsion mexanizm	Natija	Milliy sharoit uchun taklif
1	Moliyaviy xizmatlar (FinTech)	Singapur	Raqamli banklar, QR-to'lovlar, AI asosida kredit skoring	Tranzaksiya tezligi va moliyaviy inklyuziya oshdi	Raqamli bank xizmatlarini hududlarda kengaytirish, AI asosida risk-baholash tizimini joriy etish
2	Transport va logistika	Germaniya	Aqlli logistika (Smart Logistics), IoT monitoring	Yetkazib berish aniqligi va tezligi oshdi	Ombor va transport tizimida GPS va IoT integratsiyasi, logistika markazlarini klasterlash
3	Turizm va mehmondo'stlik	Yaponiya	Robotlashtirilgan mehmonxona xizmati, onlayn bronlash platformalari	Xizmat sifati va turistlar oqimi oshdi	Milliy turizm platformasini yaratish, mehmonxonalarni CRM tizimiga o'tkazish
4	Ta'lim xizmatlari	Finlandiya	Raqamli ta'lim platformalari, moslashuvchan o'quv modullari	Ta'lim sifati va qamrov darajasi oshdi	LMS tizimlarini keng joriy etish, ta'lim-biznes integratsiyasini kuchaytirish
5	Sog'liqni saqlash	Janubiy Koreya	Teleditsina, elektron tibbiy karta	Tibbiy xizmat tezligi va shaffofligi oshdi	Elektron sog'liqni saqlash platformasini rivojlantirish, masofaviy konsultatsiyalarni kengaytirish



6	Elektron hukumat xizmatlari	AQSh	E-government portallari, ochiq ma'lumotlar bazasi	Davlat xizmatlarining shaffofligi va tezligi oshdi	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini takomillashtirish
7	Chakana savdo va servis	Birlashgan qirollik	Omnichannel savdo, Big Data tahlili	Mijoz sodiqligi va savdo hajmi oshdi	CRM va Big Data asosida mijoz segmentatsiyasini joriy etish

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari va takliflardan kelib chiqib, tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

- xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion rivojlanish ko'p jihatdan raqamli transformatsiya darajasiga bog'liq;
- innovatsion infratuzilma va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari xizmatlar sektorida barqaror o'sishni ta'minlaydi;
- inson kapitali sifati va bilim iqtisodiyoti omillari servis innovatsiyasining asosiy determinantlari hisoblanadi;
- platformali biznes modellari xizmatlar bozorida raqobat ustunligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, xorij tajribasi asosida xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning kompleks modeli ishlab chiqish mumkinligi isbotlandi. Ushbu model raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, davlat–xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish va inson kapitalini rivojlantirishga tayanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar va xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatdiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Jahon amaliyotida xizmatlar sektori yalpi ichki mahsulotning asosiy qismini shakllantiradi va iqtisodiy o'sishning barqaror manbai sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Singapur, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Korey va AQSh tajribasi shuni tasdiqlaydiki, xizmatlar sohasida innovatsion rivojlanish raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, platformali biznes modellarni qo'llash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va inson kapitalini rivojlantirish orqali ta'minlanadi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiyalar ko'pincha mahsulot yaratishdan ko'ra jarayonlarni takomillashtirish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, marketing strategiyalarini yangilash va mijoz bilan o'zaro aloqalarni raqamlashtirish orqali amalga oshiriladi. Raqamli transformatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda xizmatlar eksporti, qo'shilgan qiymat va mehnat unumdorligi sezilarli oshgani kuzatiladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan yaratilgan innovatsion infratuzilma, grant va soliq imtiyozlari, startup ekotizimi hamda ta'lim tizimi bilan biznes o'rtasidagi integratsiya xizmatlar sektorida innovatsion faollikni kuchaytiruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur natijalarga asoslanib, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun bir qator amaliy takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, raqamli transformatsiyani jadallashtirish zarur. Bunda CRM, ERP, Big Data va sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlarini joriy etish xizmatlar sifatini oshirish va mijoz ehtiyojlarini aniq prognozlash imkonini beradi. Ikkinchidan, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish maqsadida hududiy klasterlar, servis-inkubatorlar va texnoparklar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, inson kapitalini rivojlantirish, xususan, raqamli ko'nikmalarni oshirish va innovatsion menejment bo'yicha malaka oshirish dasturlarini kengaytirish talab etiladi.

Shuningdek, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, platforma iqtisodiyoti va raqamli xizmatlarni tartibga soluvchi mexanizmlarni soddalashtirish hamda startup va kichik biznes subyektlari uchun qo'shimcha rag'batlantirish choralari joriy etish lozim. Xizmatlar eksportini rivojlantirish, xalqaro standartlashtirish tizimlarini tatbiq etish va milliy servis brendlarini shakllantirish ham ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi kerak.

Umuman olganda, xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni kompleks rivojlantirish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, bandlikni kengaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvni milliy sharoitga moslashtirish orqali xizmatlar sektorining innovatsion salohiyatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Djalilov Faxriddin Azimovich XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2024. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xizmat-ko-rsatish-sohasida-innovatsion-faoliyatini-rivojlantirish-zarurati>
2. Джалилов Ф. (2025). XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI. Цифровая экономика, 8(8), 797–806. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/digital-economy/article/view/125132>



3. Kurbanova Rakhima, Khakimov Damir KORXONALARNING INNOVATSION FAOLIYATINI BAHOLASHDA XALQARO AMALIYOT TAJRIBASI // JMBM. 2025. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/korxonalarining-innovatsion-faoliyatini-baholashda-xalqaro-amaliyot-tajribasi>
4. Xudayberdiyeva Nargiza. (2025). XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR. "Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot" Jurnal, 3(11), 14–18. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17656905>
5. Askar Axrorovich Siddikov, Ahmadbek Nizomiddinovich Najmiddinov. (2026). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI. Servis 2024-yil, №1 https://journal.sies.uz/articles/xizmat_ko_rsatis_korxonalarida_innovatsion_faoliyatni_takomilla



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>